

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDA VAQF MULKCHILIK SIYOSATI  
(XO`JA AHROR AVLODLARI VAQF MULKLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7829812>

**Abdaxatov Alisher Ibodulla o`g`li**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi Turkiston o`lkasini mustamlakaga aylantirgandan keyin, mustamlakachi ma`muriyat tomonidan o`lkadagi vaqf mulklariga bo`lgan munosabati to`g`risida ham yuritiladi. Respublika markaziy arxividagi hujjatlar, Rus muarrixlarining asarlariga ham to`xtalib o`tiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Vaqf mulki, Rossiya imperiyasi, O. D. Chexovich, Xo`ja Ahror Valiy avlodlari mulklari, P. Nalivkin, yer maydonlari, mustamlaka ma`muriyati, nizom loyihasi.*

**Annotation:** *This article deals with the attitude of the colonial administration to the foundation properties in the country after the Russian Empire colonized Turkestan. The documents in the central archive of the Republic and the works of Russian historians are also discussed.*

**Key words:** *Foundation property, Russian Empire, O. D. Chekhovich, properties of descendants of Khoja Ahror Vali, P. Nalivkin, land areas, colonial administration, draft charter.*

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin mustamlakachi ma`muriyat o`lkada o`zining siyosiy va iqtisodiy nufuzini kuchaytirish maqsadida 1886-yil 12-iyulida ``Turkiston o`lkasini boshqarish haqida`` deb nomlangan qonunni qbul qilgan. Lekin o`sha qonunga qadar ham Turkiston general-gubernatorligida o`lkadagi ter-suvlarga egalik qilish masalasini tubdan qayta ko`rib chiqish bilan shug`ullanuvchi maxsus ha`yat tuzilgan edi.[1]

1878-yildan Zarafshon okrugidagi barcha yerlar Rossiya imperiyasi ma`muriyatining nazoratiga o`ta boshlagan. Mana shu masalaga munosabatini bildirgan akademik V.V.Bartold: ``Turkiston o`lkasini qayta tuzuvchisi K.P. Kaufman musulmon ruhoniylari va diniy muassasalarni inkor etish tizimiga amal qiladi``, deb yozgan edi. Shunday siyosat tufayli Xoj`a Ubaydulloh Ahror avlodlarining kuchli zarbasiga duchor bo`ldi. [2]

Mana shu o`rinda Xoja Ahrorning vaqf mulklari xususida tarixchi olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni keltirish zarurdir. Professor O. P. Ivanov o`zining Jo`ybor shayxlari tarixiga bag`ishlangan yirik monografiyasida, Z.A.Qutiboyev Xo`ja Ahror tarixiga oid tadqiqotlarida mazkur eshon ulkan mulk sohibi ekanligi haqida yozganlar.[3]

O. D. Chexovich bunday fikrlarga e'tiroz bildirib, XV asrda Xo'ja Ahrordan badavlatroq shaxslar ham bo'lganligini ta'kidlaydi.[4]

Lekin bu haqida aniq dalillarni keltirmaydi. Vaholangki, uning o'zi tayyorlagan ``Samarqand hujjatlari`` nomli yirik to'plami to'la-to'kis Xo'ja Ahrorning boyliklariga oid materiallar majmuasidir. Qolaversa fikrimizni tasdiqlash uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. 1876-yilda Peterburgda o'tkailgan sharqshunoslarning III-anjumanida M.N. Rostislavov manbalariga tayangan holda, ``Turkiston o'lkasida yer masalasi va yer mulklarining turlari`` mavzusidagi ma'ruzada keltirishicha, o'lkadagi eng salmoqli vaqf Xo'ja Ahror avlodlariga tegishli bo'lib, uning 500 dan ortiqroq avlodlari yiliga 100 000 rubldan ziyodroq mablag'larni taqsimlagan.[5]

Mazkur davrda O'rta Osiyoning turli viloyatlarida va Afg'onistonda joylashgan 64 ta qishloq to'la holda, 1300 ta yer maydonlari, hamda son-sanoqsiz ko'chmas mulklar Xo'ja Ahror Valiy avlodlarining vaqf mulklari sifatida rasmiylashtirilgan.[6]

Rossiya imperiyasi mustamlaka ma'muriyati tomonidan Xo'ja Ahror avlodlariga tegishli bo'lgan vaqf mulklarini keng ko'lamda va keskin tarzda taftish qilinishini qariyb 40 yil davom etgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarni mukammal o'rganish asnosida shunday xulosaga kelish mumkin.[7]

Vaholangki, Xo'ja Ahror avlodlari mulklari tarixiga oid dastlabki tadqiqotda yuqoridagi eshon avlodlariga qarashli yer maydonlari va boshqa turdagi ko'chmas mulklarini Rossiya imperiyasining mustamlakachilik ma'muriyatining yuqori martabali va nufuzli harbiylari tomonidan taftish etilishi va o'sha mulklarni tortib olish jarayoni 1893-1899-yillarni o'z ichiga olganligi ko'rsatilgan.[8]

Rossiya imperiyasi mustamlakachilik ma'muriyatining Xo'ja Ahror Valiy avlodlarining Toshkent viloyatidagi vaqf mulklariga alohida qiziqish bo'lgan. Zero, ko'hna vaqfnomalarning guvohlik berishicha, Hazrati eshonning faqat Toshkent viloyatidagi vaqf mulklari g'oyat keng hududlarni qamrab olgan. Chunonchi, Xo'ja Ahror avlodlarining vaqf mulklari mazkur viloyatdagi Chirchiq, Ohangaron va Keles vohalaridagi ulkan yer maydonlarini o'z ichiga olgan. O'sha mulklar tarkibiga ayrim qishloqlargina emas, balki butun-butun mavzelar kirgani holda, ularning sarhadlari tog'lar va daryolarga borib tutashgan.

Fikrimizni tasdiqlash uchun ba'zi misollarni keltiramiz: O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan 516a-raqamli XV asrga mansub noyob vaqfnomaga ko'ra Toshkent viloyatidagi 19 ta yirik mulklar Xo'ja Ahrorning vaqf mulklari bo'lgan. Masalan, ``Qorasuv Kalon mulkning sharqiy hududi-Bolug` suv yerlariga, shimoliy chegarasi Farak daryosiga, g'arbda G'azalkent yerlariga, qisman Kon xok tog'iga tutashgandir``.[9]

Iqtisodiy ma'lum ma'noda siyosiy nuqtai-nazardan qudratli sanalgan Xo'ja Ahror avlodlarining vaqf mulklariga alohida zarba berishga harakat qilingan. Bu borada mustamlakachi hokimiyatining eng yuqori organlari boshchiligida keskin siyosat amalga

oshirilgan. Mazkur eshon avlodlariga tegishli bo'lgan vaqf mulklariga oid hujjatlarni taftih etishga kirishildi. O'z vaqf mulklariga egalik qilish huquqidan mahrum bo'lishidan sarosimaga tushganlar Rossiya imperiyasi hokimiyatining turli organlariga, jumladan Toshkent shahar Qozilarining qurultoyiga shikoyat arizalari bilan murojaat qilganlar.

1886-yil 18-oktabrdagi o'tkazilgan Qozilar sudining qarorida Toshkentdagi ``Xo`ja Ahror madrasasining mutavallisi Mo`minxon To`raning arizasi`` ko`rib chiqilganligi yozilgan. Unda bayon qilinishicha, mazkur vaqf mulklaridan davlat xazinasiga tanop puli va xiroj soliqlarini o`z paytida to`lab turilgan. Mutavallining so`roviga ko`ra, agar o`sha mulklar vaqf mulki ekanligi e`tirof etilsa, ulardan okladli soliq olish mumkin bo`lmagan.

Xo`ja Ahror Valiy avlodlarining vaqf mulklari haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirishda turli arxiv hujjatlari, xususan ayrim shaxslarning shikoyat arizalari muhim ahamiyatga egadir. Mana shu o`rinda Xo`ja Ahror Valiyning Toshkentdagi madrasasi mutavallilari Nasriddinxon To`raxon o`g`li va Mo`minxon To`ra Saidxon To`ra o`g`lining 1887-yil 30-may kuni yozilgan arizasiga ilova tarzida 4 ta vaqf hujjatlarining rus tiliga o`girilgan nusxalari qo`shib taqdim etilgan. O`sha arizaga qozining bir qarori ham qo`shib berilgan. Ariza mualliflari o`zlarining vaqf mulklariga egalik huquqini tasdiqlamoqchi bo`lishgan. Eng muhimi, Xo`ja Ahror vaqf mulklarining ro`yxati keltirilgan.

1. Toshkent shahrining Gul, Sobungaron, Attorchilik bozorlaridagi 78 ta do`kon;
2. Toshkent shahrining Mahkama mahallasidagi bir masjid xonaqohi, ayvoni va oshxonasi bilan;
3. Toshkent shahrining Mahkama mahallasidagi bir saroy (aravaxona);
4. Samarqandning Amirzoda Abdullo anhoridagi ikkita tegirmon bolaxonasi va asbob-anjomlari bilan;
5. Buxorodagi Ulug`bek sulton madrasasi ro`parasidagi hammom binolari va bog`I bilan;
6. Samarqandning Shovdor tumanidagi Said quli mavzeida joylashgan ushr yerlari;
7. Samarqand okrugining Ko`cha Malik anhuri atrofidagi haydaladigan yerlar;
8. Samarqanddag Zahhob yoki Gado qishloqlaridagi ekishga yaroqli yerlar;
9. Samarqandning Kabuvat mavzeidagi yerlar va yana 4 dong yerlar bo`lib, u o`sha viloyatning Ginduvon qishlog`ida joylashgandir; Toshkent viloyatining Machalak tumanidagi Kumas mavzeidagi yerlar. Shuningdek, Samarqandning yuqorida aytilgan tumanidagi 200 botmon yerlar.

XIX asrning 90-yillarida Turkistondagi Rossiya imperiyasi ma`muriyati diniy muassasalardagi vaqf mulklari va ulardan kelayotgan daromadlarga alohida e`tibor qaratdi.

Turkiston o'lkasidagi o'quv yurtlarining Bosh noziri 1892-yilning 9-martidagi 603-sonli hisobotida nadrasalarga tegishli vaqf mulklari va ulardan olinadigan daromadlar bo'yicha nazoratni kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlab quyidagilarni yozgan:

“Madrasalarga tegishli bo'lgan vaqf mulklariga doir ma'lumotlarni aniqlash zarurati tobora ortib borayotgan bir paytda, bu sohaga oid aniq ma'lumotlar, xususan vaqfdan kelgan daromadlar va ularni sarf qilinishi haqida to'la ishonchli ma'lumotlar yo'q. Natijada vaqf daromadlarining taqsimoti masalasida anchagina tushunmovchiliklar, noaniqliklar kelib chiqmoqda. Zero ko'pgina madrasalarda mutavallilar muayyan tartibdagi hisob-kitob ishlarini olib borib, zarur hujjatlarni rasmiylashtirmaydilar. Vaholangki, madrasa mudarrislari va mutavallilarga berilgan yo'riqnomaga asosan ular bu ishlarni tartibga solishga ma'sul hisoblanadlar”. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizamning 267-moddasiga muvofiq, barcha vaqf mulklarini boshqarish va naorat etish yer solig'i bo'yicha Viloyat boshqarmalariga yuklatilgan.

Bu sohaning bilimdoni imperiya maslahatchisi V. P. Nalivkinning tavsiyasiga ko'ra viloyat va uyezd ma'muriyatlari barcha madrasalardagi mutavallilardan quyidagilarni bajarishini qat'iy talab qiladilar:

1. Vaqf daromadlarini sarf qilinishi bo'yicha muayyan tartibga solingan holdagi hisobotini tayyorlash;

2. O'quv yurtlari qoshidagi madrasalarda mavjud bo'lgan vaqf mulklarini ro'yxatini tayyorlash, madrasalardagi mudarris va mutavallilarning nomma-nom ko'rsatilgan ro'yxatini tayyorlash. Shuningdek, vaqf daromadlari hisobidan berilgan stipendiyalar haqida ham aniq ma'lumotlar tayyorlash ham belgilangan.

Mana shu tarzda o'lkadagi o'quv yurtlari boshqarmalari Turkistonda Rossiya imperiyasining vaqf siyosatini yurgizishga yaqindan yordam berganlar. Chunonchi, o'quv yurtlari tasarrufidagi madrasalar va ularda mavjud bo'lgan vaqf mulklariga doir statistik ma'lumotlar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Rossiya imperiyasi Turkistonni o'zining xom-ashyo bazasiga aylantirishdek niyatini amalga oshirish y'olda qilayotgan erkin harakatlariga madrasalar ixtiyoridagi vaqf mulklari to'siq bo'lib qolgan edi.

Mustamlakachilar madrasalarning vaqf mulklarini o'zlashtirishda ikki xil yo'l tutdilar. Birinchidan, mujmal bo'lib turgan yerlarni vaqf kategoriyasidan chiqarish va ikkinchidan dahlsiz hisoblangan vaqflar ustidan nazoratni kuchytirishdan iborat bo'lgan.

XIX asrning 90-yillari boshida yer solig'i ishlarini tartibga solish bahonasida vaqf mulklariga oid hujjatlarni tekshirish boshlandi. Natijada ko'plab madrasa va qorixonalarining vaqflari tortib olindi. Rossiya imperiyasi ma'muriyatining yer solig'i ishlariga ma'sul hisoblangan amaldorlar g'oyat “inchiqlik” bilan mavjud hujjatlarni tekshirishgan. Ko'p hollarda hujjatlarning asl nusxa ekanligiga, xonlarning muxri bor yo'qligiga, yana qolaversa hujjatlarni o'z vaqtida ko'rsatilmaganligiga e'tiroz

bildirganliklari haqida arxiv hujjatlarida ko`plab ma`lumotlar uchraydi. Uddaburonlik bilan vaqf mulklarini tortib olishga turli bahonalar topilgan.

**REFERENCE:**

1. Полное собрание законов Российской империи. Т.6, СПб., 1888.-С.318-344
2. Наливкин. В. П. Положения вакуфного дело в Туркестанском крае до и после его завоевания/ Ежегодник Ферганской области.Т., 1904. Т.3. Новый Маргелан -С.29.
3. Наливкин. В. П. Положения вакуфного дело в Туркестанском крае до и после его завоевания/ Ежегодник Ферганской области.Т., 1904. Т.3. Новый Маргелан -С.28.
4. Иванов. П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов, –М-Л.,1954 –С Кутибаев. З. А. К истории вакуфных владений Ходжа Ахрара и его потомков,. Т. 1970-С.10
5. Ростиславов. М. Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае.-Петербург, 1876.-С25-27.
6. O`zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti vaqfnomalari: inv No 9, 18, 508a, 516a; O`zbekiston MDA, 323-fond, 1-ro`uxat, 1202-ish; О. Д. Чехович. Самаркандские документы XV-XVI вв –Москва. 1974. –С. 28.
7. O`zR MDAning 17,18-fondlarida saqlanayotgan hujjatlar.
8. Кутибаев. З. А. К истории вакуфных владений...-с.13.
9. Кутибаев. З. А. Интересный документ по аграрной истории Средней Азии//Общественные науки Узбекистане -1968.№12.-С. 34-35.